



UDK:811.512

Feruzaxon RAMAZONOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b
E-mail: feruzamazonova@yandex.ru

TAFU, PhD, dotsent J.A.Baxadirov taqrizi asosida

YOZISH JARAYONINING KOGNITIV VA METAKOGNITIV STRATEGIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘rganishda, xususan, ingliz tilida yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan yozuv strategiyalarining nazariy asoslari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada metakognitsiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari — deklarativ, amaliy va shartli bilimlar mohiyati batafsil yoritilgan. Shuningdek, Bloom taksonomiyasi va uning qayta ko‘rib chiqilgan modeli asosida kognitiv jarayonlarning ta‘limdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari yozuvni o‘qitishda kognitiv va metakognitiv yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanish yozma nutq sifatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Yozuv strategiyalari, kognitiv strategiyalar, metakognitiv strategiyalar, metakognitsiya, yozma nutq, xorijiy til o‘qitish, Bloom taksonomiyasi, reflektiv tafakkur.

COGNITIVE AND METACOGNITIVE STRATEGIES OF THE WRITING PROCESS

Annotation

This article examines the theoretical foundations of writing strategies and their effectiveness in developing writing skills in a foreign language, particularly in English. The article also provides a detailed discussion of the concept of metacognition and its main components – declarative, procedural, and conditional knowledge. In addition, the importance of cognitive processes in education is demonstrated through Bloom’s taxonomy and its revised model. The findings suggest that employing instructional methods based on cognitive and metacognitive approaches significantly enhances the quality of learners’ written performance in a foreign language.

Key words: Writing strategies, cognitive strategies, metacognitive strategies, metacognition, written discourse, foreign language teaching, Bloom’s taxonomy, reflective thinking.

КОГНИТИВНЫЕ И МЕТАКОГНИТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ПРОЦЕССА ПИСЬМА

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы стратегий письма и их эффективность в развитии письменных умений при изучении иностранного языка, в частности английского. В статье подробно раскрывается понятие метакогниции и ее основные компоненты — декларативные, процедурные и условные знания. Также на основе таксономии Блума и ее обновленной версии показана значимость когнитивных процессов в обучении. Результаты исследования подтверждают, что использование методов обучения, основанных на когнитивном и метакогнитивном подходах, способствует повышению качества письменной речи при изучении иностранного языка.

Ключевые слова: Стратегии письма, когнитивные стратегии, метакогнитивные стратегии, метакогниция, письменная речь, обучение иностранному языку, таксономия Блума, рефлексивное мышление.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida xorijiy tilni, ayniqsa ingliz tilini samarali o‘rgatish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va axborot almashuvi sharoitida yozma nutq kompetensiyasi talabalar uchun muhim akademik va professional ko‘nikmaga aylanmoqda. Yozuv jarayoni murakkab kognitiv faoliyat bo‘lib, u fikrlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash kabi bir qator aqliy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda kognitiv va metakognitiv strategiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv strategiyalar yozuvning amaliy jihatlari ta‘minlash, metakognitiv strategiyalar esa yozish jarayonini ongli ravishda boshqarish imkonini beradi.

Samarali yozuv - bir nechta ko‘nikma va strategiyalarni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Yozuv strategiyalari fikrlarni rivojlantirish va tashkil qilish hamda ularni aniq va izchil ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Yozish strategiyalari ritorik, metakognitiv, kognitiv va ijtimoiy/affektiv strategiyalarga bo‘linadi [1].

Ritorik yozuv strategiyasi – bu yozuvchining g‘oyalarni maqsadli auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish va ularni yozuv konvensiyalari asosida tartibga solish uchun qo‘llaniladigan strategiyadir. Ushbu strategiya yozuvchini matnning mazmuni, uslubi va janr talablariga mos ravishda axborotni tuzish va uni sodda tilda, tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Kognitiv yozuv strategiyasi – bu yozuvchi tomonidan aniq yozuv topshiriqlarini bajarish uchun qo‘llaniladigan aqliy amallar va maxsus texnikalardan iborat. Ushbu strategiya yozish jarayonining amaliy jihatlari o‘z ichiga oladi: g‘oyalarni shakllantirishdan tortib yakuniy matnni tahrirlashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda yozuvchi tomonidan bajariladigan faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Metakognitiv yozuv strategiyasi – bu yozuvchi tomonidan kognitiv faoliyatni nazorat qilish va yozish jarayonidagi ishtirokini boshqarish maqsadida qo‘llaniladigan yuqori darajadagi amaliy ko‘nikmadir. Mazkur strategiya yozish faoliyatini tartibga solish, kuzatish va baholash orqali

yozuvchining o'z o'quv jarayonini ongli ravishda boshqarishga xizmat qiladi. Metakognitiv strategiya kognitiv strategiyadan farqli ravishda, talabning o'z o'qiv faoliyatini o'zi muvofiqlashtirishiga undovchi mexanizmlardan tashkil topgan.

Ijtimoiy/affektiv yozuv strategiyalari – bu yozuvchining yozuv muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hissiy holat, motivatsiya, munosabat va tashvishlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan, akademik bo'lmagan, biroq muhim strategiyadir. Ushbu strategiya talaba tomonidan yozuv jarayonini boshqalar bilan muloqot qilish va o'z qarashlarini samarali ifoda etish uchun qo'llaniladigan usuldir.

O'zining yozish strategiyalaridan foydalanish va yutuqlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida Olivers-Cuhat [2] talabalar eng ko'p kognitiv strategiyalardan foydalanganligini aniqlagan. Liliane Jabbour Aziz [3] ham o'zining ikkinchi til grammatikasi va yozuv ko'nikmasiga kognitiv va metakognitiv strategiyalarning ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotida kognitiv strategiyalar muhimligini ta'kidlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida yozishda kognitiv strategiyalar bilan birga metakognitiv strategiyalardan ham foydalangan ikkinchi til o'rganuvchilari faqat kognitiv strategiyalardan foydalanganlarga nisbatan yuqori natijalarga erishgan.

Kognitiv strategiyalar - yozuv jarayonining amaliy jihatlarga qaratilgan bo'lib, ularga g'oyalarni ishlab chiqish, xulosa chiqarish, tahrirlash, eslab qolish, aniqlashtirish, kengaytirish va mashq qilish kiradi.[4] Bu strategiyalar yozishdagi muammolarni yengib o'tishga yordam beradi. Cook aytganidek, kognitiv strategiyalar to'g'ridan-to'g'ri yozuv bilan bog'liq amaliy xarakterlarni o'z ichiga olsa, metakognitiv strategiyalar ushbu jarayonni boshqarish va yo'naltirish uchun xizmat qiladi. [5]

Metakognitiv strategiyalar – bu yozuv jarayonini boshqarish uchun yozuvchi tomonidan ongli tarzda amalga oshiriladigan harakatlardir. [6] Ingliz olimi L.R.Oxfordning [7] ta'kidlashicha, “metakognitiv” atamasi oddiy fikrlash jarayonida yuqori darajadagi aqliy faoliyatni anglatadi. Ushbu strategiya talabalarga e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlarga diqqatni jamlashga yordam beradi. Metakognitiv strategiya rejalashtirish, baholash va kuzatish kabi fikrlash faoliyatlarini o'z ichiga oladi hamda mustaqillik va o'z-o'zini boshqarishni rag'batlantiradi. [8]

Demak, kognitiv strategiyalar fikrlarni yaratish va tartibga solish uchun, metakognitiv strategiyalar esa yozuv jarayonini baholash va nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

Bugungi kunda talabalar mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga ega bo'lishi, taqdim etilayotgan axborotni strukturaviy tahlil qilish va XXI asr ko'nikmalaridan biri bo'lgan mustaqil o'rganish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Shu sababli, bilish faoliyatining reflektiv tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va didaktik vositalarga asoslangan kognitiv o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv yondashuvda ta'lim jarayoni axborotni yod olishga emas, balki uni anglash, fanlararo bog'liqlikni tushunish, izlanishli tafakkurni rivojlantirish va talabani faol fikrlashga yo'naltirishga asoslanadi.

Bugungi kun talabalarining psixologik xususiyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni tez egallash, noodatiy yechimlar topish, ixcham va vizual axborotni samarali qabul qilish, o'z-o'zini rivojlantirish va ijodga intilish kabi xususiyatlarga ega. Shu bois xorijiy tilni o'qitishda talabalarni va o'quvchilarni faollashtiruvchi, ijodiy va o'yinli yondashuvlarga asoslangan topshiriqlarga e'tibor qaratish lozim.

Kognitiv yondashuv - o'quvchilarning xorijiy til va madaniyatlarni ijodiy, iqtisodiy va maqsadli tarzda egallashning ratsional usullaridan foydalanish bo'yicha

ko'nikma va malakalarni shakllantirishni anglatadi. [9] Bundan tashqari, kognitiv jihat til o'rganish maqsadini tilni bilish, rivojlantirish va uni o'zlashtirishdan faol foydalanishni nazarda tutgan holda, xorijiy tilni o'rganishni madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida uzviy bog'liqligiga urg'u beradi. [10]

Shubhasiz, o'qitishni rivojlantiruvchi maqsadi nafaqat xorijiy tilni kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, balki shaxsiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bilan ham bog'liqdir.

E Loarer va M. Yutoning ta'kidlashicha “Kognitiv o'qitish usullarining asosiy maqsadi – bu intellektni, ya'ni o'rganish va yangi holatlarga moslashuvni ta'minlovchi barcha aqliy qobiliyatlar va strategiyalar majmuasini rivojlantirishdir”. [11]

Kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish sohasida dastlabki tizimlashtirishga urinishlar XX asr o'rtalaridanoq boshlangan. B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan “Bilimlar taksonomiyasi” ilk marotaba o'quv dasturlarini ishlab chiqish, dars o'tish va baholashni takomillashtirishda muhim vosita bo'lgan. Bloom bilimlarni 6 toifaga ajratgan: bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash. [12]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kognitiv jarayonlar va til o'rganish o'zaro bog'liq. Kognitiv strategiyalar xorijiy til o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir qiladi va aksincha. Shuning uchun, talabalarga murakkab vazifalar qo'yish muhim xisoblanadi.

Kognitiv strategiyalar – bu inson tomonidan fikrlash, o'rganish va bilim olishda foydalaniladigan asosiy aqliy qobiliyatlardir. (masalan, eslab qolgan ma'lumotni yod olish, tovushlar va tasvirlarni tahlil qilish, ma'lumotlar orasida boglanishlar o'rnatish yoki ularni taqqoslash/qarama-qarshi qo'yish, matn talqin qilish yoki xulosa chiqarish). Bu strategiyalar ma'lum bir maqsadga erishishda yordam beradi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, metakognitiv strategiyalar umumiy o'quv maqsadiga erishish yoki unga erishilishini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Metakognitiv faoliyatlar o'quv vazifasiga qanday yondashishni rejalashtirish, muammoni yechishda mos ko'nikma va strategiyalarni qo'llash, matn tushunganini nazorat qilish, o'zini baholash va baholash natijasida o'zini tuzatish, topshiriqni bajarishdagi yutuqlarni baholash va chalg'ituvchi omillarni anglashdan iborat.

Metakognitsiya – kognitiv psixologiya nazariyasida insonning o'z tafakkuri va uning qanday ishlash jarayoni haqida ongli ravishda xabardorligi, shuningdek, uni boshqarish qobiliyati sifatida izohlanadi. [13] Metakognitiv qobiliyat kognitiv resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi hamda lingvistik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qobiliyat o'quv va umumiy yechish jarayonida qaysi strategiyalarni, qachon, qayerda, qanday va nima sababdan qo'llashni bilishni o'z ichiga oladi.

Yozuv jarayonida metakognitsiya markaziy o'rin tutadi. Yozma mahsulot metakognitiv boshqaruv, yo'naltirish va monitoring natijasi hisoblanadi. [14] Metakognitiv xabardorlikka ega bo'lgan va uni faol qo'llaydigan talabalar muvaffaqiyatli o'quvchilarga aylanishadi. Aksincha, o'z metakognitsiyasidan xabardor bo'lmagan talabalar yozuv jarayonida qiyinchilikka duch keladilar, jumladan: mazmunni umumlashtirish, matn tuzilmasini yaratish, yozuv rejasi va maqsadini belgilash, texnik jihatlarni samarali bajarish hamda matnni qayta ko'rib chiqish kabi kompetensiyalarni to'liq amalga oshira olmaydilar.

Metakognitiv strategiyalarni o'rgatishdan maqsad – o'quvchilarni bu strategiyalarga moslashib qolgan holda, ularni avtomatik ravishda o'quv topshiriqlarida qo'llashga o'rgatishdir. Bu orqali talabalar o'z e'tiborlarini jamlashadi,

ma'no chiqarishadi va agar nimadur noto'g'ri bo'lsa, o'zlarining yondashuvlarini o'zgartiradilar.

Flavel [15] o'z izlanishlarida metakognitiv bilimni kognitiv jarayonga ta'sir qiluvchi omillar haqidagi asosiy bilim yoki ularga bo'lgan ishonchlarning yig'indisi sifatida tavsiflagan. U bilimni uch toifaga ajratgan:

Deklarativ bilim (Declarative knowledge)

Amaliy bilim (Procedural knowledge)

Shartli bilim (Conditional knowledge)

Deklarativ bilim (faktlar va ma'lumotlar) – bu yozuvga oid faktik tushunchalarni, masalan, sarlavha matn mazmuni haqida o'quvchiga ma'lumot berishini yoki hikoya bilan insho orasidagi farqlarni bilishni o'z ichiga oladi. Ba'zi tadqiqotchilar barcha deklarativ bilimlar xotirada bayon tilgan yoki ifodalangan shaklda saqlanadi, deb hisoblaydilar. Meykenbaum va Beymiller [16] hamda Fogarti [17] deklarativ bilimni quyidagi tarzda qo'llash mumkinligini ta'kidlaydilar:

a) Men nimani bilmoqchiman?

b) Qanday kalit so'zlar va ma'lumotlarni olishim mumkin?

c) Men nimalarni bilaman?

d) Yana qanday ma'lumotlarni qidirishim mumkin?

Deklarativ bilim yozuv jarayonini ongli ravishda boshqarishni, talaba nimani o'rganishi kerakligini tushunishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu bilim orqali metakognitiv strategiyalarni rejalashtirish, kuzatish va taxlil qilish osonlashadi.

Amaliy bilim – bu kognitiv faoliyatlarni qanday amalga oshirish haqidagi bilimdir. A.Reber va E.Reber amaliy bilimni muayyan hodisani baholashda tegishli omillarni boshqarishga yordam beradigan bilim sifatida ta'riflaydilar. Masalan, insho yozishda amaliy bilimdan foydalanish quyidagi savollar orqali ifodalanaadi:

Ma'lumotlardan qanday foydalanish mumkin?

Ma'lumotlarni qanday taqdim qilish kerak?

Topshiriqlarni bajarishda qanday qadamlardan foydalanish zarur?

Demak, amaliy bilim bu yozuv vazifasini qanday bajarishni bilish, strategiyalarni qo'llash bosqichlari, texnikalar va ularni qanday ketma-ketlikda bajarilishini anglatadi.

Shartli bilim – qachon v animo sababdan ushbu strategiya yoki protsedura qo'llanilganini aniqlashga yordam beradi. [18] Flavel shartli bilimni o'z bilim va strategiyalarini kerakli vaziyatda qo'llash bo'yicha tushuncha deb ta'riflaydi. [19] Schraw va Dennison [20] shartli bilimni metakognitiv nazoratni ajralmas qismi deb hisoblaydilar, chunki u talabaga turli strategiyalarni tanlash va moslashtirish imkonini beradi.

Metakognitiv bilimning asosiy turlari bo'lgan deklarativ, amaliy va shartli bilimlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, yozuvchining yozish jarayonidagi bilimni, mahoratini va strategik yondashuvini aniqlaydi. Har bir bilim turi alohida ahamiyatga ega bo'lsada, ular birgalikda smarali yozuv faoliyatini boshqarishda muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa. Yozuv ko'nikmasi xorijiy tilni o'zlashtirishda muhim o'rin tutuvchi murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali yozuv faoliyati kognitiv va metakognitiv strategiyalarning uyg'un qo'llanilishiga bevosita bog'liqdir. Kognitiv strategiyalar yozuvning amaliy jihatlarini ta'minlasa, metakognitiv strategiyalar ushbu jarayonni ongli ravishda boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Metakognitiv xabaridorlikka ega bo'lgan talabalar yozuv jarayonida yuqori natijalarga erishadilar. Shuningdek, Bloom taksonomiyasi va kognitiv yondashuv ta'lim jarayonida talabalarni tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, xorijiy tilni o'qitishda kognitiv va metakognitiv strategiyalarga asoslangan metod va topshiriqlardan foydalanish talabalar yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

- Riazi, A. Acquiring disciplinary literacy: A social-cognitive analysis of text production and learning among Iranian graduate students of education // *Journal of Second Language Writing*. – 1997. – Vol. 6, № 2. – P. 105–137.
- Olivares-Cuhat, G. Learning strategies and achievement in the Spanish writing classroom: A case study // *Foreign Language Annals*. – 2002. – Vol. 35, № 5. – P. 561–570.
- Aziz, L. A model of paired cognitive and metacognitive strategies: Its effect on second language grammar and writing performance : PhD diss. – San Francisco : University of San Francisco, 1995.
- Mu, C., Carrington, S. An investigation of three Chinese students' English writing strategies // *TESL-EJ*. – 2007. – Vol. 11, № 1. – P. 1–23.
- Cook, V. Second language learning and language teaching. – London : Hodder Education, 2008.
- Mu, C., Carrington, S. An investigation of three Chinese students' English writing strategies // *TESL-EJ*. – 2007. – Vol. 11, № 1. – P. 1–23.
- Oxford, R. L. *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. – New York : Heinle & Heinle Publishers, 1990.
- Goctu, R. Metacognitive strategies in academic writing // *Journal of Education in Black Sea Region*. – 2017. – Vol. 2, № 2. – P. 82–96. – DOI: 10.31578/jebss.v2i2.44.
- Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика : учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – 3-е изд., стер. – М. : Академия, 2006. – С. 115.
- Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика : учеб. пособие. – 3-е изд., стер. – М. : Академия, 2006. – С. 118.
- Loarer, E., Yuto, M. Когнитивное обучение: история и методы // *Когнитивное обучение: современное состояние и перспективы / под ред. Т. Галкиной, Э. Лоарера*. – М. : Институт психологии РАН, 1997. – С. 17–33.
- Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H., Krathwohl, D. R. *Taxonomy of educational objectives*. – Vol. 2. – New York : Longmans, Green, 1964.
- Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive developmental inquiry // *American Psychologist*. – 1979. – Vol. 34. – P. 906–911. – DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.
- Hacker, D. J., Keener, M. C., Kircher, J. C. Writing is applied metacognition // *Metacognition in education / ed. by D. J. Hacker, J. Dunlosky, A. C. Graesser*. – New Jersey : Routledge, 2009. – P. 154–172.
- Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive developmental inquiry // *American Psychologist*. – 1979. – Vol. 34. – P. 906–911. – DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.
- Meichenbaum, D., Biemiller, A. *Nurturing independent learners: Helping students take charge of their learning*. – Cambridge, MA : Brookline Books, 1998.
- Fogarty, R. *How to teach for metacognitive reflection*. – Glenview, IL : Pearson SkyLight, 1994.
- Woolfolk, A. *Educational psychology*. – 9th ed. – Boston : Allyn and Bacon, 2008.
- Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive developmental inquiry // *American Psychologist*. – 1979. – Vol. 34. – P. 906–911. – DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.
- Schraw, G., Dennison, R. S. Assessing metacognitive awareness // *Contemporary Educational Psychology*. – 1994. – Vol. 19, № 4. – P. 460–475.